

# SEPTEMBER 2020

ROSTOV-ON-DON, RUSSIA



---

Conference proceedings available      DOI [http://doi.org/10.37057/R\\_1](http://doi.org/10.37057/R_1)

## СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ РЕШЕНИЯ АКТУАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ

а.Дніпропетровська-  
та-Азовська,  
Дніпропетровськ

ОДЕЖДА

CHINGIZ AYTMATOV ASARLARIDA AFSONALARING BADIY TALQINI	
177	
<b>Barotova Muhiba Orifovna</b>	
O'ZBEKONA PARALINGVISTIK VOSITALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	
180	
<b>Bultakov Abdurasul Akbarovich</b>	
LEKSIKOGRAFIK MEZONLAR	
182	
<b>Erkinboyeva Mexrishod Azamat qizi., Yallaboyeva Oynisa Bolibek qizi., Umarqulov Ali Nahmaddin o'g'li., Dustmurodov Navfal Xushvakt o'g'li</b>	
EFFECTIVE AND EASY WAY TO LEARN FOREIGN LANGUAGES	
185	
<b>Gubayeva Xurshida Ismatilla qizi</b>	
KOREYS ZAMONAVIY NASRINING O'ZBEKCHA TARJIMALARI PERSONAJ NUTQIDA GENDER JIHATLARNING TAHLILI	
188	
<b>Jamoldin Yoqubov</b>	
TASAVVUF TIMSOLLARI HAQIDA MULOHAZALAR	
192	
<b>Latipov Aziz Akbaralievich</b>	
USE OF DIGITAL RESOURCES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES	
196	
<b>M.O. Nosirova</b>	
VERBALIZATION OF THE STATUS OF THE TEACHER IN THE WORKS OF RUSSIAN LITERATURE OF THE XVIII-XIX CENTURIES	
200	
<b>Mamadaliyev Muhsin Saydazimovich</b>	
FASOHAT ILMINING MAVZUSI	
202	
<b>Nurboyeva Marvarid Tavakkalovna</b>	
YUSUF KHAS HAJIB`S "KUTADGU BILIG" IS ONE OF THE MOST IMPORTANT EDUCATIONAL ISSUES	
204	
<b>Alioxunova Nasibaxon., Nu'monova Dilafruz Mohirjon qizi</b>	
ALISHER NAVOIY "XAMSA" SIDAGI SINONIMIK TURKUM SO'ZLAR	
207	
<b>Hamroyeva Maftuna Rasulovna</b>	
O'ZBEK TILITA`LIMIDAGI MUAMMOLAR	
209	
<b>U. Sh. Berdiev</b>	
PHILOSOPHICAL AND CULTURAL INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF "MAN" IN CHINESE	
211	
<b>Xabibullayeva Zilolaxon Xikmat qizi</b>	
ZAMONAVIY TA`LIMDA "KEYS-STADI" METODINING AFZALLIGI	

## O`ZBEK TILI TA`LIMIDAGI MUAMMOLAR

### Hamroyeva Maftuna Rasulovna

BuxDU mustaqil ilmiy tadqiqotchisi, Ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

*Annotatsiya - Ushbu maqolada o`zbek tili ta`limidagi muammolar ko`tarib o`tiladi.  
Ilmiy qarashlar faktlarga asoslanib xulosalanadi.*

*Kalit so`zlar - O`zbek tili, maqom, xalq, mamlakat, hayot, til, harakat, qadriyat, fikr, fundamental, fan, kommunikatsiya, axborot, texnologiya, etimologiya.*

O`zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi, xalqimizning o`zligini anglashi, mamlakatimiz ichki va tashqi hayotida tilning o`rni, milliy ma`naviy va madaniy qadriyatlarni tiklash xalqimiz hayotidagi muhim, o`z oldiga qo`yan asosiy masalalardan biri ekanligidan dalolat beradi. O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning sa`y-harakatlari bilan ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma`naviy merosni o`rganishga keng imkoniyatlar yaratildi, milliy-ma`naviy qadriyatlarmiz qaytadan tiklandi. Birinchi yurtboshimiz I.A.Karimov bu haqida shunday fikrlarni bildirib o`tgan edilar: "Biz ajdodlardan avlodlarga o`tib kelayotgan beba boyliking vorislari sifatida ona tilimizni asrab avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqla, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank moliya tizimi kabi o`ta muhim sohalarda ona tilimizning qo`llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so`z bilan aytganda, o`zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o`zlikni, Vatan tuyg`usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasizdir"1.

Ana shu g`oyadan kelib chiqib hozirgi o`zbek tilining o`ziga xosligiga va nutqiy imkoniyatlarini har tomonlama ochib berishga doir fikr-mulohazalar bugungi kun tilshunosligi uchun dolzarb va qimmatlidir. Masalan, hozirgi kunda o`quvchi yoshlarning yozma nutqiy savodxonligini o`stirish chora-tadbirlarini yanada takomillashtirish, yangi va o`ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqish lozim. Bizning fikrimizcha, o`quvchilarimizda sog`lom tanqidiy fikrlash muhitini yarata olsakkina ularda yozma savodxonlik yanada yaxshilanadi. Jumladan, ular ko`cha-ko`yda yurganda har bir yozilgan ma`lumot, umuman, yozuvlarning yozilishiga e`tibor bilan qarab va bunga o`zlarining tanqidiy fikrlarini bayon qilishlari va buning uchun rag`batlanishlari, nazarimizda, ularda yozma savodxonlikka bo`lgan munosabatning o`zgarishiga olib keladi. Ular yozma savodxonlikning ahamiyatini chuqur his qiladi va biz kuzatayotgan kamchiliklar ham barham topadi. Yoxud ko`cha-ko`ydagи yozuvlarni yozayotganlarni ham o`z tanqidlari orqali e`tiborli bo`lishga undaydilar. Bundan tashqari, o`qituvchi pedagoglarimizning, qaysi soha mutaxassis bo`lishidan qat`i nazar, qayta malaka oshirishda yozma savodxonligiga alohida e`tibor qaratilishi lozim deb o`layman. Buning uchun maxsus shu nomdagi darslarning barcha soha vakillari uchun tashkillashtirilishi va imtihonlarni o`tkazish. Chunki o`quvchining bu boradagi bilimlari, nafaqat, ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi, balki, boshqa fan o`qituvchilari, oila, ko`cha-ko`y muhiti bilan bog`liqlikda rivojlanib boradi.

Shunday muammolardan yana biri o`quvchilarda ijodiy fikrlashdagi biqiqlik, sayozlik yoki fikrini bayon qilishning aniq, ravon hamda tugal emasligi. Buni bartaraf etish choralarining aniq va o`ziga xos yo`l-yo`riqlar bilan ishlab chiqilmaganligi esa yana bir oldimizdagи o`z yechimini kutayotgan masalalardan biridir. Ularni bartaraf etish biz uchun nafaqat o`zbek tili ta`limi uchun, balki

ta`limning zamonaviy shakli uchun ham zarurdir.

Bundan tashqari yana bir dolzarb vazifa kadrlar salohiyatini yaxshilash. Zero, har qanday ijtimoiy faoliyat ravnaqi yoki tanazzuli kadrlarning salohiyati bilan bog'liqdir.

Mana shunday isloh qilishning yana bir dolzarb vazifasi o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini yaxshilash bilan bog'liqdir. Kasbiy faoliyatni yaxshilash uchun esa ularning malakasini oshirish surʼur. Eng asosiysi esa o'qituvchilar malakasini oshirishda eskicha uslublardan voz kechish, zamonaviy o'qituvchi qiyofasini shakllantirish zarur. Bu yo`lda asosiy tayanch kompetensiyalarning ikkitasi: axborotlar bilan ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishga e'tibor berish kerak bo'ladi. Buning uchun mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish, ularning xavfsizligini ta'minlash, mediamadaniyatga ega bo'lish layoqatini shakllantirish, o'qituvchining ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlanishi, kamolotga intilishi, hayot davomida mustaqil o'qib- o'rganishi, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borishi, o'z xatti-harakatini muqobil baholashi va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashi nazarda tutiladi.

Bu kabi muammolarni aniqlash va bartaraf etish yo`lida har bir o`zbek tili mutaxassis o`zining barcha salohiyatini ko`rsata olsa va yuqorida muammolarni chuqur o`ylab, o`zida bartaraf eta olsa, bu kabi masalalar yechimini topa oladi va biz shundagina ko`zlagan maqsadimizga yeta olamiz.

Shunday ekan, bu muammolarni keltirib chiqarayotgan sabablarni kompleks tarzda ilmiy o'rganish, tahlil qilish, xulosalash va bartaraf etish uchun choralarни yanada chuqur o`rganish hamda ishlab chiqish kerak bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Êàðèññâ È.A P ê ñ à ê ñàþíàâèÿò - Åíæëëñàñ êó÷. Õîøêåñò T.: 2008
- 2.£èëë÷åâ Ý.¤çáåê ðèëë èññàñ ñòèâñè. Õ.:2004.
- 3.¤çáåê ðèëë èññàñ èçîµëè ëó²àðè. I-II  
ðññ. 4. Internet sahifalari.